



2019 yilning yanvar-may oylarida Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR

<b>5768,4 mlrd so'm</b>	<b>112,1 %</b>
Sanoat ishlab chiqarish hajmi	Sanoat ishlab chiqarish indeksi
<b>1853,2 mlrd so'm</b>	<b>109,6 %</b>
Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	O'sish sur'ati
<b>28,9 %</b>	<b>32,1 %</b>
Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi	Ist'emol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar – may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan **5768,4 mlrd so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,1 %** ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining **113,9 %** ga, elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **105,2 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish **108,0 %** ga o'sishi hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati -97,7 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati -113,9 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati -105,2 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati -108,0 foiz)

## 2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'rishiga qo'shgan hissasi

### *Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2019 yilning yanvar - may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **450,7 mlrd.so'mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **7,8 %** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iyicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar **-104,5 %** ga oshgan. Xom neft va tabiiy gaz qazib olish **-95,9 %** ga, tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat **-95,9 %** ga kamayganligini kuzatish mumkin.




### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.*



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **142,0 mlrd.so'mni** (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **2,5 %** ni) tashkil etdi.

### *Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **62,2 mlrd.so'm** ni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,1 %** ni) tashkil etdi.



***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***


Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **5113,5 mlrd** so'mni (jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmining **88,6 %** ni) tashkil etdi.



***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **1853,2 mlrd.so'm**ni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan **109,6 %** ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa **32,1 %** ni tashkil etdi.

***2019 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan  
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

**Neft, ming t.**

7,8



8,0

102,6 ↑

**Tabiiy gaz, mln.kub.m.**

1904,8



1832,3

96,2 ↓

**Gaz kondensati, ming t.**

21,7



19,4

89,4 ↓

**Shag'al , t.**

5950,0




24117,0

405,3 ↑

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
	<b>Aroq (ming litr 100% spirt)</b>		
697,3		503,4	72,2 ↓
	<b>Uzum musallasi (vino) (ming litr)</b>		
364,2		288,9	79,3 ↓
	<b>Un mahsuloti (tonna)</b>		
32425,4		34270,6	105,7 ↑
	<b>Paxta tolasi, ming t.</b>		
41,4		55,2	133,3 ↑
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</b>		
14,3		12,5	87,4 ↓
	<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>		
263,8		271,8	103,0 ↑
	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>		
264,5		311,4	117,7 ↑
	<b>Mazut, ming t.</b>		
32,0		29,3	91,6 ↓

### Yanvar-may oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




	Oziq-ovqat tovarlari	Nooziq-ovqat tovarlari
■ 2019	36,6	63,4
■ 2018	50,7	49,3


2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,3 % dan 2019 yilning yanvar-may oylarida 63,4 % ga oshishi kuzatilmoqda.

### 2019 yil yanvar –may oylarida Tuman (shahar)lar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,2 %), Buxoro shahar (11,3 %), Romitan tumani (9,0 %), Gijduvon tumani (6,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



*2019 yil yanvar-may oylarida tuman (shahar)lar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi*




Viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Buxoro shahar (viloyat iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmning 24,3 %), Qorovulbozor tumani (16,9 %), G'ijduvon (12,6 %), Jondor tumani (6,1 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

*Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi*

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,0 %** ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa **28,9 %** ni tashkil etmoqda.

*2019 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da*



**2019 yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 817 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 29,3 foizi Buxoro shahriga to'g'ri keladi.**



**2019 yil 1 iyun holatida Buxoro viloyatida sanoat korxonalari to'g'risida ma'lumot.**

T/R	Shahar va tumanlar	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2019 yil yanvar - may oylarida yangi tashkil etilgan
1	Buxoro shahar	1097	1060	239
2	Kogon shahar	152	149	39
3	Olot tumani	115	105	32
4	Buxoro tumani	278	258	68
5	Vobkent tumani	145	139	37
6	G'ijduvon tumani	442	410	110
7	Kogon tumani	256	242	44
8	Qorako'l tumani	150	149	36
9	Qorovulbozor tumani	91	90	23
10	Peshko' tumani	135	130	38
11	Romitan tumani	202	198	56
12	Jondor tumani	257	253	43
13	Shofirkon tumani	181	172	52
	<b>Жами</b>	<b>3501</b>	<b>3355</b>	<b>817</b>

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Nashr uchun mas'ul: H.Sadullaev*

*Tel: 0(371) 230-83-05*